

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро - 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғликлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида 2024 йил 10 май куни “БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ КАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида утказилди.

Ушбу илмий туплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан кизикувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мулжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Х.Х.Тураев

Тахрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Ҳамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудир, т.ф.ф.д (PhD) доцент С.И.Иноятлов - Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д. М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н М.Б.Курбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н Ф.Д.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н А.А.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD) Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта уқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD) О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта уқитувчиси, Ш.У.Носиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси, пловчи ва нашрга тайёрловчилар: Темиров Ф.У. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудир Умаров Б.Б. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси Носиров Ш.У. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси

Мазкур туплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги 9 - сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган. Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар, маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг

узлари масъул ва жавобгардир

<https://buxdu.uz>

SOMONIYLAR DAVLATIDA ILM-FAN, MADANIY HAYOT VA DIN

Narimonov Murodillo Ismat og'li - Buxoro

davlat universiteti, 4-kurs talabasi Ilmiy
rahbar: Utayeva F.X.
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Bu davrda Buxoroda ayniqsa she'riyat ravnaq topgan. Uning rivojiga fors klassik poeziyasining buyuk vakillari Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Abulhasan Balxiy va ko'pgina boshqa shoirlar g'oyatda katta hissa qo'shganlar.

Rudakiy IX asr oxirida Panjikent yaqinidagi Panjrudak qishlog'ida tug'ilgan. Yoshlik chog'idayoq u rud (chang) chalishni yaxshi o'rgangan. She'r yozib, kuy bastalagan va hofizlik qilgan. Xalq o'rtasidagi dong'i tufayli u Nasr ibn Ahmad (914~943) tomonidan sozanda va shoir sifatida Buxoroga chaqirtirilib olingan. Rudakiy "Kalila va Dimna", "Sind-badnoma", "Arois un- nafois" va "Davroni oftob" asarlarini yozgan. Rudakiy 941- yilda ona qishlog'ida vafot etgan¹.

Bu davrning zakovatli shoirlaridan yana biri Daqiqiy edi. Avval u Chag'oniyon hukmdorlari, so'ngra somoniylar saroyiga taklif etilgan. Daqiqiy an'anaviy saroy poeziyasidan farqli o'laroq, xalq rivoyatlari va epik dostonlar asosida yangi poetik yo'nalishda ijod qilgan. Umrining oxirida u "Shohnoma" nomli poetik asarini yozishga kirishgan. Bu buyuk ish keyinchalik Abulqosim Firdavsiy tomonidan davom ettirilgan. Abulqosim Firdavsiy (934-1012) fors adabiyotining klassik shoiri hisoblansdi. U dunyoga mashhur she'riy "Shohnoma" asarini yaratgan. IX-X asrlarda fors adabiy tili ancha rivoj topgan bo'lsada, ammo ilm- fan va adabiyotda hali arab tili muhim o'ringa ega bo'lgan.

Saolabiyning "Yatimat ul-bahr" nomli asarida qayd etilishicha, Buxoro, Xorazm va Xurosonda 119 arabiy zabon shoirlar ijod qilgan. Ularning deyarli barchasi saroy ahli, hukmron xonadon a'zolari va boshqa oliy tabaqa vakillaridan iborat bo'lgan. Tilshunoslik, fiqh, musiqa, falsafa, matematika, tabobat, astronomiya, tarix va boshqa fanlar bo'yicha ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilgan².

Buxoro va boshqa markaziy shaharlarda islom dini ta'limotining asosiy manbalari va shariat bilimlarini o'qitish uchun madrasalar ochilgan. Bunday ilmgohlardan yetishib chiqadigan ilm ahlining hammasi ham qozi yoki a'lam bo'lavermay, ular orasidan dunyoviy ilmlar: tabobat, handasa, matematika, kimyo, falakiyot, falsafa, mantiq, tarix va boshqa sohalar bo'yicha puxtagina bilim orttirgan olimlar ham yetishib chiqqan. Bunday bilim egalari xalq o'rtasida baobro' va e'tiborli bo'lib, ular atrofida, shubhasiz, ko'plab shogirdlar to'plangan.

Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shahar bozorlarida alohida kitobfurushlik rastalari ham bo'lgan. Ularda diniy va dunyoviy ilmlarning turli sohalar

Республика миёсидаги илмий-амалий конференция

bo'yicha turli tillardagi qo'lyozma kitoblar sotilgan. Ibn Sinoning yozishicha, u Buxoro bozorida Abu Nasr Forobiyning "Aristotel metafizikasiga sharh"lar nomli kitobini uch dirhamga sotib olgan. Bu kitobni o'qib chiqqach Ibn Sino qadimgi yunon faylasufi Aristotel ta'limoti va falsafasining mohiyatiga tushunib yetgan.

Shahar madaniyatining ravnaqi, o'rta asrlar jamiyati, ziyolilari davrasining kengayib borishi shubhasiz somoniy hukmdorlarni ilm ahli bilan yaqinlashtirgan. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalanganlar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlarni va turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar kutubxonalaridagi nodir qo'lyozma asarlar bilan mag'rurlanaganlar¹.

Mustaqil Somoniylar davlatining tashkil topishi, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko'tarilish madaniy hayotning ravnaqiga imkon bergan. Bu davr Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy va Abu Bakr Muhammad Narshaxiy kabi jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarni o'z bag'rida tarbiyalab kamolotga yetkazgan.

X-XII asrlarda Movarounnahrda tarix va geografiyaga qiziqish ortib, bu ilmlarga e'tibor kuchaygan. Chunki bu davrda mahalliy aholining ma'naviy hayotida o'z ona tili va unda yozilgan tarixiy va adabiy asarlarga bo'lgan ehtiyoj ham tobora ortib borgan. Ayni shu davrda Gardiziyning "Zaynulaxbor" ("Xabarlar ko'rki"), Bayxaqiyning 30 jildlik tarixiy asari, Majiduddin Adnoniyning "Tarixiy mulki Turkiston", Muhammad Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" kabi asarlari fors tiliga tarjima qilingan.

Bu davrda Movarounnahr, Shosh, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti yuzaga kelgan. Qator didaktik poemalari bitilgan. Ammo ularning juda oz nusxalarigina bizgacha saqlangan.

Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda bu davrda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, xonaqoh, maqbara, tim va karvonsaroylar qurilgan. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy, Zirabuloq yaqinida - Tim qishlog' idagi Arabota, Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbaralari, Buxorodagi Namozgoh, Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari va boshqa ko'pgina binolar o'sha davr me'morchiligining namunalaridandir. Bu yodgorliklar X- XII asrlarda Movarounnahrda o'ziga xos me'morchilikning g'oyat rivoj topganligidan dalolat beradi².

IX-XII asrda dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham keng rivojlangan. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Marg'iloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriy kabi ulamolar islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rin egallagan. Tasavvuf ta'limoti rivojlanib, O'rta Osiyoda uning turli xil yo'nalishlari (XII asrda Turkistonda Yassaviya, XIII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya) paydo bo'lgan va tarqalgan³.

Xulosa qilib aytganda, Somoniylar davlatida ilm-fan, madaniy hayot va din rivoji ravnaq topgan. Jahonda ilm fan sohasidagi allomalarning o'rni va ahamiyatining nufuzi oshgan. Madaniy hayotning rivojini bizgacha yetib kelgan moddiy va ma'naviy yodgorliklardan ham bilib olishimiz mumkin. Somoniylar davri madaniyati tarixda juda kat ta ahamiyatli o'ringa ega.^{1 2 3}

¹ Зоҳидов В.Уч даҳо (Форобий, Беруний, Ибн Сино). -Т., 1987, -326.

² Пугаченкова Г.А. Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Т.: 1989, -38с.

³ Азамат Зиё. Узбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000. 75 б.

1. Курбонова, Д. Н. (2024). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ GOOGLE DOCS И РЕДАКТИРОВАНИЯ ФАЙЛОВ В СРЕДЕ GOOGLE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(4), 108-113.
2. Soliyevna, S. S. (2024). SO‘G‘D KONFEDERATSIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 174-180.
3. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197..
4. Axmatovna, J. N. (2024). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER–SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN‘ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 181-188..
5. Utayeva, F. (2023). TO‘QIMACHILIK FABRIKASIDA AHOLINING ISH BILAN TA‘MINLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
6. F Utayeva [BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI](#) ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2023
7. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO ‘QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.
8. F Utayeva, B Safarov [ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА](#) Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023
9. Utayeva, F. (2023). BUXORO TO‘QIMACHILIK KOMBINATINI MALAKALI MUTAXASISLAR BILAN TA‘MINLASH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
10. Utayeva, F. (2023). BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 41(41).
11. Utayeva, F., & Safarov, B. (2023). ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА. *Farg ‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 303-307.

12. Utayeva, F., Sharipova, P., & G'ayratjon qizi Rahmatova, R. F. (2023). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO TO 'QIMACHILIK SANOATIDA MODERNIZATSIYALASHUV JARAYONLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (6), 61-61.
13. Kholmamatovna, U. F. (2022). Bukhara Yarn and Fabric Factory (1970-1985). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(6), 160-164.
14. Utayeva, F. (2022). Utayeva FX MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 18(18).
15. Utayeva, F. (2022). Utayeva FX BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 18(18).
16. Utayeva, F. (2021). BUXORO TARIXINI O'RGANISHDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLARNI O'RNI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
17. Utayeva, F. (2021). Activities and Financial Status of Bukhara Mangit Rulers in The Years Of Independence. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
18. Utayeva, F. (2021). TARIX DARSLARIDA MUTAFAKKIRLARNING MA'NAVIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
19. Utayeva, F. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ИЛМИЙ ТАРИХИЙ МАТБУОТДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
20. Utayeva, F. (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
21. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197.
22. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.

